

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 149 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH	48
Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиев Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anjionovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudjetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI	126
Xalikov S. X.	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	



AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	



AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI



Eshqobulova Charos O'roq qizi

Tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayollar ish bilan bandligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solishning turli mexanizmlari, ularning ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish choralari va vositalari aniqlanib, iqtisodiyotning real talablaridan kelib chiqqan holda, ayollar samarali ish bilan bandligini ta'minlashni takomillashtirishga doir tavsiyalar taklif qilingan. Qishloq joylarda ayollar ish bilan bandligini oshirish mexanizmlarining ilmiy-metodologik asoslarini yoritib mantiqiy, tadqiqotni o'rganishga tizimli yondashuv, sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Iqtisodiyotning real talablaridan kelib chiqqan holda qishloq joylarda ayollar ish bilan bandligini ta'minlashni takomillashtirishga doir tavsiyalar taklif qilingan va ular ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishda yangi ish o'rinlarini yaratish va mavjudlarini saqlab qolish maqsadida oilaviy va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etishning imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Maqolada ayollarning ish bilan bandlik muammolariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan, bir qator ijtimoiy mexanizmlar taklif qilingan.

Kalit so'zlar: ayollar ish bilan bandligi, ishsizlik, ishchi ko'chiga talab va taklif, ijtimoiy mexanizmlar, masofaviy mehnat, tadbirkorlik.

Abstract. This article identifies various mechanisms for state regulation of women's employment, measures and means of state regulation of their employment, and proposes recommendations for improving the effective employment of women, based on the real requirements of the economy. A logical, systematic approach to research, and sociological research methods are used to illuminate the scientific and methodological foundations of mechanisms for increasing women's employment in rural areas. Based on the real requirements of the economy, recommendations are proposed for improving women's employment in rural areas, and they develop opportunities for widespread involvement in family and private entrepreneurship in the economic regulation of employment in order to create new jobs and preserve existing ones. The article analyzes the factors affecting women's employment problems, and a number of social mechanisms are proposed.

Keywords: women's employment, unemployment, supply and demand for labor migration, social mechanisms, remote work, entrepreneurship.

Аннотация. В статье рассматриваются различные механизмы государственного регулирования занятости женщин, меры и средства государственного регулирования их занятости, а также предлагаются рекомендации по повышению эффективности занятости женщин, исходя из реальных потребностей экономики. В статье с использованием логического, системного подхода и социологических методов исследования раскрываются научно-методологические основы механизмов повышения занятости женщин в сельской местности. Исходя из реальных потребностей экономики, предлагаются рекомендации по повышению занятости женщин в сельской местности, а также развиваются возможности широкого вовлечения семейного и частного предпринимательства в экономическое регулирование занятости в целях создания новых и сохранения существующих рабочих мест. В статье анализируются факторы, влияющие на проблемы занятости женщин, и предлагается ряд социальных механизмов.

Ключевые слова: женская занятость, безработица, спрос и предложение на трудовую миграцию, социальные механизмы, удаленная работа, предпринимательство.

KIRISH

Mamlakatimizda ayollarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, bandlik dasturlarini ishlab chiqishga zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Shu nuqtai nazardan ayollar ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etish zaruriyatining ilmiy va amaliy ahamiyati, birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, tarkibiy islohotlar ikkinchidan, davlatning makroiqtisodiy darajada ijtimoiy mehnat munosabatlarini tartibga solish ehtiyoji kuchayganligi bilan izohlanadi. Yani O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 69-maqsadi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" deb nomlangan. Unda, jumladan: xotin-qizlarning ta'lim olishiga qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o'rnini yanada oshirish, xotin-qizlar o'rtasida biznes ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha bepul o'quv amaliy kurslarini tashkil etish, imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo'lga quyish [1] vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan qishloq joylarda ayollar ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini tadqiq etish zaruriyatining ilmiy va amaliy ahamiyati, birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, tarkibiy islohotlar ikkinchidan, davlatning makroiqtisodiy darajada ijtimoiy mehnat munosabatlarini tartibga solish ehtiyoji kuchayganligi bilan izohlanadi.

Ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi o'z xususiyatlariga ko'ra ayol ishchi kuchiga talab va taklifni shakllantiruvchi elementlar majmuasidan iborat bo'ladi. Mazkur majmua jamiyatni takror hosil qilish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moddiy, ma'naviy ehtiyojlar jamlanmasi bo'lib, ayollarni ijtimoiy mehnat sohasida ishtirok etishini ta'minlash maqsadida ular faolligini oshirish borasida ijtimoiy mexanizm elementlarining o'zaro bog'liqligini tadqiq qilish yaxshi natija beradi. Mazkur mexanizm bu ayol ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlariga muayyan ta'sir ko'rsatuvchi, uni mazmunan to'ldiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shakllar va omillarni o'z ichiga oluvchi elementlar majmuasidir. Mazkur muammoni tadqiq qilishda ish bilan bandlikning umumiy qonuniyatlari, tamoyillarini o'rganish, hisobga olish, ularga tayanish, shu asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlash maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ayollarning ish bilan bandligi muammolari bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan, jumladan, xorijlik olimlardan F.A.Xayek, R.E.Lukas, R.S.Smit, mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.A.Nikiforova, N.M.Rimashevskaya, Ye.B.Mezenseva tadqiqotlarida keng bayon etilgan. O'zbekistonda mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatdan R.A.Ubaydullayeva, N.X.Raximova, D.N.Raximova, D.A.Artikova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Shu o'rinda mazkur masalani o'rgangan olimlarning nazariy-metodologik yondashuvlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Jumladan, N.M.Rimashevskayaning e'tirof etishicha <<Ayollar ish bilan bandligi erkaklarning bandligidan ikki asosiy jihatdan farq qiladi. [2.321]. Birinchidan, ayollar odatda erkaklarga nisbatan kam daromad topadilar. Ikkinchidan, ko'plab jamiyatlarda ayollar pullik ishlarda erkaklarnikiga qaraganda kamroq mehnat qiladilar, lekin ko'pincha haq to'lanmagan ishlarda (oilaviy) band bo'ladilar. Ayollar mehnatining gender xususiyatlariga oid ijtimoiy tasavvurlar va mehnat taqsimotidagi o'ziga xoslikka hududiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi>>.

Bu fikrni davom ettirib, professor N.X.Rahimovanning ta'kidlashicha <<Hozirgi paytgacha zamonaviy jamiyatda amaliyotda va kishilar ongida, rasman yoki norasmiy shakllangan an'ana va odatlar bilan belgilangan, jinsiy belgiga qarab mehnatning taqsimlanishi yetarlicha mustahkam o'rin tutib kelmoqda. Hatto urbanizatsiyalashgan mamlakatlarda ham gender kasbiy kamsitish, ya'ni erkak va ayollarning qat'iy belgilangan kasblar, sohalar va lavozim bo'yicha ishga joylashishining barqaror tendentsiyasi mavjud. Uning yuqori darajasi erkak va ayollarning mehnatiga haq to'lashda, lavozimda o'sish imkoniyatlarida va buning natijasi o'laroq umuman bandlik sohasida jinslar imkoniyatining tengsizligida kuzatilayotgan nomutanosiblikning muhim omili hisoblanadi>> [3,24]. O'rganishlar davomida olima tomonidan xalqaro standartlar, respublikaning milliy va ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va siyosiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, O'zbekistonda ayollar bandligi hamda moslashuvchan mehnat bozori modeli tavsiya qilingan.

Iqtisodchi olima D.N.Raximovanning fikricha esa <<Mehnat bozorida iqtisodiy faol ayollarning bandlik darajasini hisoblash, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni yanada to'liqroq va tabaqalashgan holda tahlil etish, mehnat salohiyatidan foydalanishni tartibga solish imkoniyatini beradi>> [4,143]. Bu esa ishsizlik bilan kurashish, uning tuzilmaviy va funksion turlarini qisqartirish ish bilan bandlik dasturida iqtisodiyotning tarmoq xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Muallif tomonidan ayollar mehnatining xususiyatlari, mazmunining o'zgarishi va uning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish, boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy maxanzimlari bo'yicha mantiqiy va taqqoslash tahlili, tadqiqotni o'rganishga tizimli yondashuv, tahlil va sintez, guruhlash, kompleks baholash, sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Ijtimoiy mexanizmlar orasida malaka darajasi, kasbga yo'naltirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, demografik omillar, mehnat migratsiyasi va inovatsion ish bilan bandlik bo'yicha targ'ibot, kasbiy segregatsiya, ish haqi o'rtasidagi farq, iqtisodiy faol aholi qatlami orasida ayollarning ulushini ko'paytirish ishlari singari ko'rsatkichlar asosiy o'rin egallaydi. Bu borada mehnatni takror ishlab chiqarish, ayirboshlash va undan foydalanish bo'yicha mehnat munosabatlar va meyorlar tizimini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy mexanizmlar bandlik tamoyili umumiy davlat siyosati va uning har bir tashkil etuvchisida bandlik strategiyasining amalga oshuvchi sifatida ko'rib chiqiladi va uni baholash turmush tarzining shart-sharoitlari, ehtiyojlari qondirilganligining darajasi hisoblangan farovonlik bilan belgilanadi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda demografik sharoitlar, mehnat sharoitlari, ish bilan bandlik, mehnatning tashkil etilishi, malaka oshirish, inson erkinliklari singari farovonlik unsurlaridan iborat tizimni tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan ayollar ish bilan bandligini ta'minlashda ijtimoiy mexanizmlar elementlari shaxsiy mehnat salohiyati egalarini mehnat bo'yicha munosabatlar tizimiga bevosita kiritish tamoyili asosida tizimlashtirildi.

Iqtisodiy mexanizm-tashkiliy tuzilmaning yig'indisi bo'lib, muayyan shakllar va boshqarish usullari shuningdek, ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy qonunlar, huquqiy me'yorlar orqali amalga oshirishdir. Mehnat bozorida iqtisodiy faol ayollarning bandlik darajasini hisoblash, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni yanada to'liqroq va tabaqalashgan holda tahlil etish, mehnat salohiyatidan foydalanishni tartibga solish imkoniyatini beradi. Bu esa ishsizlik bilan kurashish, uning tuzilmaviy va funkcion turlarini qisqartirish ish bilan bandlik dasturida iqtisodiyotning tarmoq xususiyatlarini hisobga olishni taqazo etadi.

Ayollar ish bilan bandligini oshirishda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu yo'nalishda qishloq joylarda ayol ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturini hayotga tadbiiq etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmlar ayol ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni hisobga olgan holda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturini hayotga tadqiq etishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda ishsizlik o'rta hisobda jami iqtisodiy faol aholining 9,3% ni tashkil qiladi. Ayollar kesimida esa 13% ko'rsatkich qayd etilgan, [5] bu O'zbekistonda o'rtacha 1 million atrofida ishsiz ayol bor degani.


Jamiyat hayotida ayollarning rolini oshirish, avvalo, ularning ish bilan bandligini ta'minlash borasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mamlakatimizda tub islohotlar rejasi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomasida <<...Xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim. Bu borada joriy yilda ko'rilgan amaliy choralarga qaramay, haligacha og'ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta'minlanmagan 13 mingdan ziyod xotin-qizlar borligi achinarlidir>> [6] degan fikrlarni bildirib, ushbu sohada yechimi topilishi zarur bo'lgan masalalar talay ekanligini ta'kidlab o'tdi. Qishloqdagi ayollar ish bilan bandligi muammosi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan sifatifa mehnat bozorida noraqobatbardosh bo'lib hisoblangan biror bir kasb malakasiga ega bo'lmagan qismiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi.

Yuqoridagilar kelib chiqib, iqtisodiyotni rivojlantirishni zamonaviy tendentsiyalarining eng muhim makroiqtisodiy xususiyati sifatida ayollar ish bilan bandligini davlat tomonidan tartibga solish choralari va vositalarini takomillashtirish tomonidan tartibga solish choralari va vositalarini takomillashtirish muammolarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ayollar ish bilan bandligini ta'minlash va ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga jalb etish uchun mehnat bozorini tartibga solishning nazariy, metodologik asoslarini ishlab chiqish, tarkibiy o'zgarishlarning ayollar ish bilan bandligiga ta'sirini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Mehnat bozorini tartibga solish ayol ishchi kuchining ijtimoiy-ruhiy, iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy, demografik tavsiflarini hisobga oluvchi faoliyat sohalariga yo'naltirish bilan belgilanadi. Ayollarni ish bilan ta'minlashdagi asosiy to'siqlar ijtimoiy-ruhiy, iqtisodiy-moliyaviy, tashkiliy, demografik turlarga bo'linib, unda oilaviy yumushlar, farzandlar tarbiyasi, kasbiy malaka darajasi, ijtimoiy infratuzilma sohalarining rivojlanishi va demografik o'ziga xoslik natijasida kelib chiquvchi bir qator muammolar, ularning yechimi bevosita tartibga solish ustuvorliklari, boshqaruv, tashkiliy va moddiy rag'batlantirishlar har tomonlama islohotlarni amalga oshirishga tayanadi.

Ayollar ish bilan bandligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan kasanachilikni rivojlantirish hisoblanadi. Kasanachilikning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bu oilaviy o'zaro munosabatlarga asoslanadi va

bunda asosan ayollar ishtirok etadi. Bu ishning xususiyati bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha ishlar uyda bajarilgani holatida bu mazkur jins vakillari uchun maqbul hisoblandi. Ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb etish, oila budjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish orqali yirik sanoat korxonalarining faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Resublikasi Prezidentining "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida korporatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2006-yil) Farmoni, "Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2017-yil) qarorlari kasanachilikni yanada rivojlantirish orqali oila budjetlari daromadlarini ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini modernizatsiyalash asosida kasanachilikka talab va uning taklifini tartibga solish tizimi takomillashtirildi. Ayollarni manzilli qo'llab-quvvatlash uchun kasanachilik mehnatini rivojlantirish samaradorligini oshirish yo'nalishlari va kasanachilik mehnatining asosiy modeli ilgari surildi. (1-rasm).



1-rasm. Ayollar uchun kasanachilik mehnatini rivojlantirish samaradorligini oshirish

Ayollar uchun kasanachilik mehnatining asosiy modeli jarayonini to'rtta asosiy bosqichga bo'lish asosida ayollar ish bilan bandligini oshirishning samarali mexanizmlarining maqbul elementlari ilgari suriladi:

- birinchi bosqichda kasanachilik mehnatiga talab bilan uning taklifini tartibga solish nazariy modelini yaratishning muammolari va maqsadi aniqlanadi, hal qilinishi murakkab bo'lgan asosiy muammolar jumlasiga ayol ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif haqida ishonchli axborotnomalarning yetishmasligi sabab bo'lib, bu muammo chuqur tahlil etiladi;

- ikkinchi bosqichda kasanachilar bilan korxonalar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik, korxonalar buyurtmalarini uy sharoitida bajarish istagini bildiruvchi ayollarni aniqlashga doir axborotlar to'planadi va tahlil qilinadi. Axborotlarni tahlil qilishda korrelyatsion-regression tahlil, imitatsion va maqsadli dasturlash uslublari keng qo'llanilib ekonometrik model ishlab chiqiladi;

- uchinchi bosqichda modelning matematik-iqtisodiy tahlilini o'tkazish hamda uni tartibga solish uchun zarur bo'lgan statistik axborotlar tayyorlanadi, birlamchi va ikkilamchi axborotlarni yig'ish, ichki va tashqi manbalar hisobiga tashkil topadi;

- to'rtinchi bosqichda kasanachilik mehnatining modelini yechish yordamida miqdor natijalari tahlil etiladi. Bunda kasanachilik mehnatini tartibga solishning samaradorligi to'g'risida xulosalar chiqariladi, avvalgi bosqichlarda olingan barcha axborotlardan foydalangan holda amaliy natijalar joriy etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar ayollar ish bilan bandligi va ishsizlik sabablariga sotsiologik so'rov natijalari asosida baho berish maqsadida ish beruvchilar bilan ish bilan band va ishsiz ayollar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni baholashning sotsiologik so'rov natijalari asosida aniqlash uslubi takomillashtirilgan. Bir qator olimlar tomonidan ishlab chiqilgan sotsiologik tadqiqot axborotlari uslubiyati tadqiqot ishida qishloq joylarini demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan tanishish bosqichini asoslash orqali takomillashtirilgan [7.48-50].



BMTning <<Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida>>gi Konvensiyasida ham qishloq joylarida istiqomat qiluvchi ayollar duch keladigan quyidagi alohida muammolarga katta e'tibor qaratilgan. Konvensiyaning 14-moddasiga binoan mazkur Konvensiyada ishtirokchi davlatlar <<qishloq joylarida ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni ko'rishlari, chunonchi: ularning rasmiy va norasmiy ta'lim olish va tayyorgarlikdan o'tishning barcha turlariga ega bo'lish huquqini ta'minlashlari, yollanib ishlash orqali yoki mustaqil mehnat faoliyati orqali teng iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishlari, shuningdek jamoa faoliyatining barcha turlarida ishtirok etishlarini ta'minlashlari kerak>> [8,45].

Bizning fikrimizcha ayollar ish bilan bandligi ayniqsa qishloq joylarida o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi va bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, o'ziga xos tadqiqotni talab qiladi. Uni tadqiq qilishda ish bilan bandlikning umumiy qonuniyatlari, tamoyillarini o'rganish, hisobga olish, ularga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ayollar samarali ish bilan bandligi tadqiqoti mazkur tushunchaning asosiy vazifalarini ham aniqlashga imkon beradi:

- iqtisodiyotning hamda mehnat bozorining real talablaridan kelib chiqqan holda, qishloq ayollari ishchi kuchiga talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;
- mehnatga doir munosabatlar yordamida qishloq ayollari ishchi kuchiga talab va taklifni solish, mehnat bozori va taklifni tartibga solish, mehnat bozori mutanosibligini va qishloq infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash orqali qishloq ayollari orasida ishsizlik darajasini kamaytirish;
- mehnatga layoqatlilar orasida mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, yangiliklar to'g'risida targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

Shu o'rinda ish bilan bandligini ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari elementlarining o'zaro munosabatlarini o'rganish nafaqat mantiqiy-funksional, balki, eng muhimi mazkur mexanizmning asosiy xususiyatlarini to'liq ochishni ta'minlashni takidlash lozim. Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ayollarning ish bilan bandligining tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor qaratsak, qishloq xo'jaligida ularning ulushi 27,8% ni tashkil etsa, ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish sohasida jami ayollarning 19,9% band. Demak, ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida ayollar ish bilan bandligi hamon yuqoriligidan qolmoqda, ularni xizmat ko'rsatish, qayta ishlash sohalariga yo'naltirish, bu borada iqtisodiyotning nodavlat tarmog'ini yanada uzviy rivojlantirib borish lozim. Iqtisodiy islohotlar davrida ayollar ish bilan bandligi sohasida qaysi yo'nalishda, qay darajada va qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi ko'p jihatdan ularning bandlik bo'yicha dastlabki ahvoriga, ayol zotining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflariga bog'liq. Bu gender stereotiplarini yemirishga qaratilgan institutlarni yaratish, maqbul ijtimoiy-demografik siyosatni amalga oshirish vositasida ayniqsa mehnatga layoqatli qishloq ayollarini qo'llab-quvvatlash zaruriyatini vujudga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 sentabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida" va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi Qarorlar mehnat munosabatlari sohasidagi gender tengligi darajasida ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qonunchilikda asosan mehnat munosabatlarida gender tengligi qayd etilgan bo'lsada, mehnat bozorida ayollarning munosib o'rin egallashi uchun hali amalga oshirilmagan vazifalar va ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p.

Bu muammoning yechimi sifatida ayollar ish bilan bandligi bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishning vositasi boshqaruvning barcha bosqichlarida ish bilan bandlikka ko'maklashishning milliy, hududiy va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish hisoblanadi. Fikrimizcha, bugungi kunda ayollarning ishga joylashishga ishtiyoqlarini oshirish, ularning iqtidor, imkoniyatlarini rag'batlantirish, bu borada uchraydigan to'siqlarni kamaytirish bo'yicha ish bilan bandlik sohasida davlat miqyosida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish uchun ishsiz ayollarning guruhlarini aniqlab, ularning ish bilan bandligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy mexanizmlar elementlarini qo'llash lozim. Shu o'rinda har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida mamlakatimizning har bir tuman va shahrida, eng avvalo, olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarsi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan <<Har bir oila-tadbirkor>> Dasturi amalga oshiriladi. Mazkur dasturda tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash, joylarda oilaviy tadbirkorlikka ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini tubdan kengaytirish va boshqa bir qator aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan[9].

Iqtisodchi olim B.X.Umurazaqovning e'tirofi etishicha <<Mamlakatimizda olib borilayotgan yangi barqaror ish o'rinlarini yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlar va ayollar ish bilan bandligini ta'minlash, mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligi va kasbiy darajasini oshirish eng dolzarb, ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan 2019 yilning yanvar-may oylari davomida jami 15288 nafar ishsiz va

band bo'lmagan aholini mehnat bozori ehtiyojlari asosida qisqa muddatlarda kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, ularning qariyb 77,1 foizi (11791 nafari) ayollar va og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar ulushiga to'g'ri keladi>> [10,111]. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hududlarda mehnat bozorining real ehtiyojlaridan kelib chiqib, ish bilan ta'minlash borasida ishlarni tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, ayollar ishchi kuchining oiladagi mehnat va farzandlar tarbiyasini birgalikda qo'shib olib boruvchi o'ziga xos murakkab munosabatlarning yig'indisi ekanligi hisobga olish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oilaviy tadbirkorlik ayollar ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishda maqbul faoliyatlardan biri hisoblanadi. Ayollar orasida kasanachilik mehnatidagi vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati, ya'ni ishchining uyda o'zi istagan vaqtida ishlashi mumkinligi, ishxonaga borib-kelish uchun ketadigan vaqtni tejashi, uyda qo'shimcha ishchi kuchi imkoniyatlaridan foydalana olishi, ayni paytda uy-ro'zg'or ishlarini nazorat qilib turishi kabi jihatlar mehnatni tashkil etishning mazkur shakliga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

Ayollar o'rtasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- soliq to'lash tizimi, inovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy turlarini targ'ib qilish;
- o'z-o'zini band qilishning usullarini joriy qilish orqali ayollar mehnatidan foydalanuvchi ish joylarini ko'paytirish;
- kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikni mikromoliyalashtirish uchun ijtimoiy investitsiyalar jamg'armalarini foydalanish;
- oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy sherikchilik shaklini qo'llash orqali bir nechta oilaning ishlab chiqarish resurslarini birlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish.

Olib borilayotgan tadqiqotlar davomida Rossiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya singari davlatlarda ayollar ish bilan bandligining zamonaviy mehnat munosabatlari tadqiq qilindi. Janubiy Koreyada "Ish bilan bandlikning masofaviy mehnat turi (telework) virtual munosabat bo'lib, ish beruvchi va xodim o'rtasida qisqa muddatli ishga yollashning samaradorligini ifodalaydi, ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi xotin-qizlarning 32,2% aynan mazkur xizmat turi bilan shug'ullanadilar" [11]. Keyingi yillarda mazkur davlatlarda zamonaviy mehnat munosabatlarining moslashuvchan yangi shakllari joriy etilmoqda, jumladan, masofaviy mehnat, frilans, autsorsing, autstaffing. Bizningcha rivojlangan davlatlar tajribasi va mehnat munosabatlarini keng tadqiq qilish, amaliyotda qo'llash ish bilan samarali bandlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, ayollar ish bilan bandligini ta'minlashni samaradorligini oshirishning strategik konsepsiyasini taklif etamiz. Unda bosh maqsad sifatida ayollar ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha asoslangan tashkiliy tadbirlar ishlab chiqish, mehnat sohasida gender tenglikka erishish bo'lib, mehnatga layoqatli ayollarning oqilona ish bilan bandligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar belgilangan, jumladan: birinchidan, ish bilan bandlik xizmatining jadal va tez rivojlanuvchi tizimini yaratish, ayollar ish bilan bandligini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy, huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, ikkinchidan, Harakatlar strategiyasi talablaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ayollarni mehnat munosabatlarining yangi shakllariga yo'naltirish, uchunchidan, ish bilan bandlikni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish strategiyasini amalga oshirish va uning istiqbolli yo'nalishlarini asoslash. Mazkur konsepsiyani tatbiq etishda ish bilan bandlik sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda eskirgan ish uslublaridan vos kechish, ilk bor mehnat bozoriga kirib kelayotgan yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishini rag'batlantirish va ko'maklashishda har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlashga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Bizning fikrimizcha, yangi ish o'rinlarini tashkil etishning quyidagi zamonaviy shakllarini yaratish asosida tashkil etish lozim:

- hududlarda, kichik biznes korxonalari va oilaviy tadbirkorlik obyektlarida imtiyozli kreditlar hisobidan ayollar uchun yangi ish joylarini yaratish;
- qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish hamda kasanachilikda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bo'yicha yangi inshootlarni xorijiy investitsiyalar hisobidan yaratish;
- oilaviy tadbirkorlik mablag'lari hisobidan qishloq xo'jaligini dehqonchilik va tomorqa xo'jaligi bo'yicha ayollarning mehnatini yo'lga qo'yish;
- ish bilan band bo'lgan ayollarning qo'llab-quvvatlashga imtiyozli yondashuvlarni qo'llash;
- yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun mulkka egalik hissini kuchaytirish;
- kasanachilikni rivojlantirish asosida yangi ish joylarini barpo etish va bunda ayollarning zamonaviy sohalarini o'zlashtirishlariga imkoniyatlar yaratish.



Ayollar ish bilan bandligining istiqbolli yo'nalishi sifatida oilaviy biznesni inovatsion tadbirkorlik asosida tashkil etishga erishish, qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda, mini-klasterlar faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu orqali mehnatga layoqatli yosh va ko'p bolali ayollar faoliyatlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, oilaviy tadbirkorlik asosida qo'shimcha o'rinlari va daromad manbalarini oshirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. //lex.uz.
2. Римащевская Н.М. Гендерные стереотипы в меняющемся обществе: опыт комплексного социального исследования. - М.: Наука. 2009. -321 с.
3. Raximova N.X O'zbekiston mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish I.f.d.diss.avtoreferati.-T.:2007.-24 b.
4. Рахимова Д.Н. Управление процессами развития трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ. Диссертация док. экон. наук. – Т.: 2000. -143 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari. Htt://www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. // <<Toshkent oqshomi>> 2018- yil 29-dekabr.
7. Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З, Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдураманов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари (монография). -Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2019.- 62, 48-50 бет.
8. Женщины в сфере труда. Тенденции. Резюме. –М.: 2016.- 45 с.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7-iyuldagi <<Har bir oila-tadbirkor>> dasturini amalga oshirish to'g'risidagi qarori. Xalq so'zi, 08.06.2018 y.
10. Umurzaqov B.X Xotin-qizlarni tekstil-tikuv sexlariga jalb etish dasturlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. <<O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining yangi bosqichida inson omili va manfaatlari: xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi>> mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. –Т.: TDIU, 2019.-111 b.
11. http://www.ilo.org. Xalqaro mehnat tashkilotining rasmiy sayti.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100